



“YOSH TADQIQOTCHI” ilmiy elektron jurnali

Vebsayt: <http://2ndsun.uz/index.php/yt>

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR – DINIY VA DUNYOVIY BILIMLAR SOHIBI

Sobirov Jamshidbek Zokirjon O'g'li

Andijon Davlat Universiteti Tarix Fakulteti 3-Bosqich Talabasi

INFO:

Qabul qilindi: 24.02.2022
Ko'rib chiqildi: 24.02.2022
Chop etildi: 25.02.2022

Kalit so'zlar: Zahiriddin Muhammad Bobur, e'tiqod, tarixshunos, geograf, Uilyam Erskin fikrlari, diniy va dunyoviy ta'limoti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Zahiriddin Muhammad Boburning bolaligidan to umrining oxirigacha diniy va dunyoviy bilimlarni egallagani, bu sohalarning ustasi bo'lgani va Bobur Mirzoning bilimi va yuksak salohiyati haqida bir qancha olim va yozuvchilarning fikrlari haqida so'z yuritiladi.

Copyright © 2021. [Creative Commons Attribution 4.0 International License](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/) tomonidan himoyalangan

Bobur keng va chuqur bilimli hamda ajoyib iste'dodli, zamonasining ulkan madaniyat arboblardan bo'lib u doimo ilm-fan, san'at va adabiyot ahlari bilan yaqindan aloqa tutar, ularga homiylik qilib, turli ilmiy, adabiy suhbatlar va munozaralar uyushtirar edi.

Darhaqiqat Zahiriddin Muhammad Bobur dunyoviy bilimlarni keng egallagan shoh va shoirdir. Bu fikrimizning tadig'ini esa Boburning turli tillarda yozilgan sermazmun asarlari-yu g'azallari, ruboiylari-yu masnaviylarida va hattoki mashhur “Boburnoma” asarida ham ko'rishimiz mumkin. “Boburnoma”

asaridagi joylar va xaritalar, yo‘llar tasvirida biz Boburning adabiyot bilan birgalikda geografiya sohasida ham anchayin katta bilimga ega ekanligini sezishimiz mumkin.

“Boburnoma”dagi narsa-hodisalarning, hayvonot va nabototning o‘zaro o‘xshashligi hamda farqini muallif nazari bilan taqqoslaganda, Boburning fikr doirasi g‘oyat kengligi, tabiat va davlatni boshqarish borasidagi mulohaza-mushohadalari ko‘lami, atrof-muhit haqidagi fikrlarini yanada kengroq idrok etish imkoni tug‘iladi. [1.8B]

Tarix, geografiya, musiqa, harb ilmi kabi fanlar rivojiga ulkan hissa qo‘shgan Bobur Mirzoning ma‘naviy merosida yoshlarni bilim olishga, odobli, axloqli bo‘lishga da‘vat etish g‘oyasi ustun turadi. Adabiyot, nafis san‘at, tabiat go‘zalligiga yoshligidan mehr qo‘ygan Bobur, barcha temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini otasi saroyida yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Bobur kishilarni inoqlikka, birodarlikka, shafqatli va insofli bo‘lish va eng asosiysi Vatanini e‘zozlashga chaqirdi. Uning ma‘rifatparvarligi, axloqiy g‘oyalari o‘z davrida katta ahamiyat kasb etdi.

Boburning ilohiyot, taxayyul, falakiyot va ularning sirlarini o‘rganish, tadqiq etishga doir fikrlari faqat buyuk adib dunyoqarashini yoritib qolmasdan, XVI asrda ruhshunoslik faniga munosabat hamda Bobur atrofidagi shaxslarning ham bu masalalarga qarashlarini muayyan darajada belgilash imkonini beradi. [2.108B]

O‘z davrining yetuk shaxsi, sarkarda va adibi Bobur Mirzo bu ta‘limotlarni har tomonlama o‘rganib, ulardan qismat va hayotning mazmunini qidirishga intilgani tabiiy hol albatta. Tasavvuf va din, xalqning urf-odatlariga ko‘r-ko‘rona emas, balki har bir hodisa va aqidaga o‘z aql mezonini bilan yondashgani yana bir bor Boburning dunyoqarashi naqadar kengligidan dalolat beradi.

E‘tiqodiga ko‘ra esa sunniy mazhabiga mansub bo‘lgan, taqvodor va xudojo‘y musulmon bo‘lgan bo‘lsa-da, uning tabiatida diniy fanatizm sezilmas edi. Erishgan muvaffaqiyatlarini ham, omadsizliklarini ham Yaratganning marhamatidan deb bilar va bunga shukur keltirar edi. [3.13B]


Shu sababli ham Bobur Mirzoga dunyo olimlari, yozuvchilari yuksak baho berganlar. Jumladan taniqli ingliz boburshunosi Uilyam Erskin samimiyat bilan ta‘kidlab, quyidagi so‘zlarni yozgan: “Osiyolik shahzodalarning hech biri Boburga teng kela olmaydi va uning yoniga qo‘yish uchun loyig‘ini topa olmaymiz”. Bu kabi misollarni yana ko‘plab keltirish mumkin.

U mustahkam diniy e‘tiqodga ega bo‘lgan buyuk zot edi. Bobur Mirzo yoshligidanoq Qur‘oni Karimni yod olgan. Boburning ruhiy pirlari, xususan, Xoja Ahror Valiyga xurmat-e‘tiqodi uning buyukligiga va betakror ulug‘ xislat egaso ekanligiga yana bir misoldir. Afg‘onistonda ham, Hindistonda ham Bobur Islom dinining yoyilishiga va islom madaniyatining rivojlanishiga hissa qo‘shdi. [4.7B]

Bu xususida Zahiriddin Muhiddinov o‘z asarida quyidagicha bayon qiladi: “U avvalo Allohga, so‘ng uning rasuli Muhammad alayhissalomga; chahor yori bosafolarga, islom olamining pir-u voliylariga chin dildan e‘tiqod qilardi”. Bobur chindan ham islom diniga, olamiga nafaqat ushbu olimlar ta‘kidlaganidek, balki ulardan ham ziyoda mehr qo‘ygan. Bobur nihoyatda dindor kishi edi. Uning ba‘zan rahmdilligi ham dindorlikdan edi.

Boburni nafaqat o‘zbek va hindlar balki qirg‘izlar ham qahramonimiz demoqdalar. Hindlarga o‘zlarining dinlariga e‘tiqoq qilishiga va urf-odatlariga amal qilishiga erkin yo‘l qo‘yib bergan bo‘lsa, qirg‘izlar esa Boburning o‘zi e‘tiqod qilgan islom diniga yuksak hurmat-ehtirom bilan qaraydilar.

Sayyidlar va dindorlar O'sh shahriga yaqin yerdagi balandligi salkam bir metr bo'lgan cho'qqiga qatnaydi, chunki shahzoda Bobur 14 yoshida ekan, ibodat qilish uchun shu tog'ning cho'qqisiga chiqib, qirq kunni faqat non va suv bilan kechirgan hamda toat-ibodat bilan shug'ullangan. Ma'lumki, u bola chog'idayoq shoir va taqvo ahlidan edi. [5.4B]



Rasm-1 Zahiriddin Muhammad Bobur

Bobur Mirzo diniy ilm bilan birgalikda ko'plab dunyoviy ilmlarning ham sohibi edi. Buni uning asarlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Bobur asarlaridan har bir tabiatshunos ilhom topa oladi. Xususan "Boburnoma" geografiya, botanika, zoologiya, astronomiya, etnografiya sohasida qimmatli bir yodgorlikdir. Shu bilan birga "Boburnoma"ning til, adabiyot, tarix, diplomatiya, harbiy san'at, moliya sohasidagi juda katta qimmatini hech kim inkor etmaydi. [6.71B]

Bundan tashqari Bobur Mirzo yoshligidan badiiy adabiyotga ham juda qiziqqan. Xususan, o'zbek, fors-tojik va boshqa millat yozuvchi va shoirlari asarlarini sevib mutolaa qilgan.

Atoiy va Sakkokiy, Lutfiy hamda Navoiy kabi o'zbek shoirlari; Xusrav Dehlaviy Xofiz, Sa'diy, Jomiy kabi fors-tojik shoirlarining asarlarini qunt bilan mutolaa qilgan. U 1506-yilning kuzida, Hirotda bo'lganida Alisher Navoiyning uyida yashab, ulug' shoir qalamiga mansub bo'lgan "Xazoyin-ul maoniy"ning nodir qo'lyozmasi bilan tanishib chiqqan va undan terma devon ham tuzgan edi. [7.10B]

Darhaqiqat Boburning ko'plab turli sohalar ustasi ekanligiga hech ham shubha yo'q. Bu xususida Saidbek Jalilov ham o'z asarida shunday yozadi: "Bobur o'rta asr Sharqida eng atoqli arboblardan biri, shuningdek u ajoyib tarixchi, zabardast shoir, sinchkov tabiatshunos olim, sayyoh-geograf, iste'dodli sarkarda, mashshoq va tilshunos, mirishkor bog'bon va hatto sohibkor, irrigator hamdir". Bundan tashqari Javaharla'l Neru "Jahon tarixiga nazar" nomli asarida Bobur Mirzoning o'zigacha o'tgan hokimlarning eng ma'rifatparvari va dilbari ekanligini aytadi.

Zahiriddin Muhammad Boburning bolalik va o'smirlik yillari haqida roman yozgan "Boburnoma"ning

ingliz tarjimoni Uilyam Erskin Boburni Osiyo podshohlariga qiyosan shunday baholaydi: “Sahovati va mardligi, iste’dodi, ilm-fan san’atiga muhabbati va ular bilan muvaffaqiyatli shug’ullanishi jihatidan Osiyodagi podshohlar orasida Boburga teng keladigan birorta podshoh topilmaydi”. [8.2B]

O‘tmish adabiyot va tarix, musiqa va san’atdan yaxshi habardor bo‘lgan, diniy ta’limotga chin ixlos qo‘ygan Bobur har doim olim-u fozillar davrasida bo‘ldi, xususan ijod ahliga, kasb-u hunar sohiblariga samimiy ehtiromlar ko‘rgazib homiylik qildi, ularni moddiy va ma’naviy rag‘batlantirib turdi. Ijod va san’at ahliga bunday mehrlar munosabat aslo bejiz bo‘lmagan. Bobur Mirzo tabiatan ijodkor edi. Yigitlik yillaridan boshlab to umrining oxirigacha samarali ijodiy ish bilan shug‘ullandi, har qanday sharoit va vaziyatlarda ham ijoddan to‘xtamadi, natijada, har jihatdan muhim boy ilmiy va adabiy meros qoldirdi.

Chet ellik taniqli olimlar Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodini o‘rganar ekan, Vatandoshimizning nechog‘lik buyuk shoh, sohibdil shoir, ma’rifatli inson, ruhiy-ma’naviy jihatdan barkamol shaxs bo‘lganligiga ishonch hosil qiladilar.[9. 6B]

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hasan Qudratillayev, Bobur Armoni. – Toshkent: Sharq, 2009. 8-bet.
2. Hasan Qudratillayev, Bobur Armoni. – Toshkent: Sharq, 2009. 108-bet.
3. G‘ofurjon Sotimov, Boburiyodalari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003. 13-bet.
4. Zahiriddin Muhitdinov, Bobur Mirzo. – Andijon: Andijon Nashriyot Matbaa, 2005. 7-bet.
5. Rustambek xoji Shamsiddin o‘g‘li, Boburni izlab. – Andijon: Meros, 1993. 4-bet.
6. Vahob Rahmonov, Boburshoh: shoir va adib. – Toshkent: Ma’rifat, 2008. 2-bet.
7. Hasanov, Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: O‘zbekiston, 1966. 71-bet.
8. Saidbek Xasanov, Zahiriddin Muhammad Bobur. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. 10-bet.
9. Sobirov Jamshidbek Zokirjon o‘g‘li. (2021). BOBUR'S WORKS ARE AROUND THE WORLD. Eurasian Journal of Academic Research, 1(3), 520–526.